

KORXONALARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Mirzashukurov Ulug‘bek Mirzakarim o‘g‘li – Toshkent Davlat
Iqtisodiyot Universiteti Menejment fakulteti, MNP-91/21 guruh talabasi*

*Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich – Ilmiy rahbar, Toshkent Davlat
Iqtisodiyot Universiteti Menejment fakulteti Innovatsion menejment kafedrasи*

Phd dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqola korxonalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy korxonalar faoliyatida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinib, ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, strategik boshqaruvni rivojlantirish, inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va moliyaviy mexanizmlarni modernizatsiya qilish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, amaliyotchilar va boshqaruv sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion texnologiyalar, strategik boshqaruv, ekologik barqarorlik, moliyaviy boshqaruv, inson resurslarini boshqarish, korporativ boshqaruv

Kirish

Bugungi kunda global iqtisodiy muhitda raqobatbardoshlikni ta‘minlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash korxonalarni boshqarishning samarali usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, raqamlı texnologiyalar rivoji va bozor dinamikasining o‘zgarishi korxonalar oldida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qiyinchiliklarni ham yuzaga

keltirmoqda. Ushbu jarayonda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning muhim o‘rnini bor. Ular nafaqat resurslarni samarali boshqarishni ta’minlaydi, balki innovatsiyalarni joriy etish va korxonaning bozor talablariga moslashishini ta’minlaydi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar korxonaning boshqaruv tizimini shakllantiruvchi asosiy tamoyillarni, usullarni va vositalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar moliyaviy, inson resurslari, ishlab chiqarish jarayonlari va strategik qarirlarni qamrab olgan holda, korxona faoliyatining barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, hozirgi bozor iqtisodiyotida korxonalar o‘z maqsadlariga erishish uchun rejalshtirishni takomillashtirish, resurslarni optimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minalash kabi vazifalarni amalga oshirishi zarur.¹

Xalqaro miqyosdagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruvning samarali mexanizmlari ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va korxonaning umumiyligi samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ko‘plab korxonalar raqamli texnologiyalar va ekologik menejment tamoyillarini integratsiya qilish orqali innovatsion rivojlanishga erishmoqda. Shu bilan birga, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda korporativ boshqaruv va uzoq muddatli strategik rejalshtirish korxonalar muvaffaqiyatining asosi sifatida tan olinmoqda.

Ushbu maqola doirasida korxonalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy tamoyillari va amaliyotlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xalqaro tajribaga asoslangan holda, ushbu mexanizmlarni o‘zlashtirish va mahalliy korxonalar faoliyatiga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.²

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar mohiyati

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar – bu korxonaning samarali faoliyat yuritishini ta’minalash uchun ishlab chiqilgan tamoyillar, usullar, vositalar va

¹ Kotler P., Armstrong G. “Principles of Marketing”. Pearson Education, 2020;

² Drucker P. “Management: Tasks, Responsibilities, Practices”. HarperBusiness, 2006;

jarayonlar tizimidir. Ushbu mexanizmlar boshqaruvning barcha bosqichlarini, jumladan rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, resurslarni taqsimlash, xodimlarni rag‘batlantirish va umumiyligi strategiyani amalga oshirishni qamrab oladi. Ular korxonaning ichki va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini boshqarish uchun xizmat qiladi.

Rejalashtirish korxonaning maqsadlarini aniqlash va ularga erishish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Strategik, o‘rta muddatli va qisqa muddatli rejalarни tuzish korxona faoliyatini yo‘naltiruvchi muhim omildir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Yevropa mamlakatlaridagi yirik korxonalar o‘z strategik rejalarini asosida innovatsion loyihalarni amalga oshiradi va bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.³

Moliyaviy boshqaruv korxonaning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va foyda ko‘rsatkichlarni oshirishga qaratilgan. Moliyaviy boshqaruv vositalariga byudjet tuzish, xarajatlarni nazorat qilish va investitsiyalarni boshqarish kiradi. Xususan, Kaplan va Nortonning “Balanced Scorecard” modeli moliyaviy ko‘rsatkichlarni umumiyligi strategiya bilan bog‘lashda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi.

Ishlab chiqarishni boshqarish mexanizmi xomashyo ta’minoti, mahsulot sifati va resurslardan oqilona foydalanishni o‘z ichiga oladi. Korxona faoliyatining uzluksizligini ta’minlash va xarajatlarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda “Lean Manufacturing” (talabga asoslangan ishlab chiqarish) tamoyillari keng qo‘llaniladi.⁴

Xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish va ularni rag‘batlantirish korxonaning asosiy vazifalaridan biridir. Xalqaro amaliyotda nafaqat moddiy rag‘batlantirish, balki shaxsiy rivojlanish, moslashuvchan ish rejimi va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali motivatsiyani oshirish samarali natijalar beradi.

³ Kaplan R. S., Norton D. P. “The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action”. Harvard Business Review Press, 1996;

⁴ Drucker P. “Management: Tasks, Responsibilities, Practices”. HarperBusiness, 2006;

Masalan, Drucker o‘z asarlarida xodimlarni o‘zaro hamkorlik va innovatsiyaga yo‘naltirishni samarali boshqaruvning asosi deb biladi.

Hozirgi zamonda ekologik va ijtimoiy mas’uliyat korxona boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Korxonalar atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash orqali o‘z brend imidjini yaxshilashi mumkin. Yevropaning ko‘plab davlatlarida korxonalar ekologik standartlarga rioya qilishni strategik maqsad sifatida qabul qilgan.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar nafaqat korxonaning ichki jarayonlarini boshqarishda, balki tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- ✓ Korxona resurslaridan samarali foydalanish;
- ✓ Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish;
- ✓ Bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- ✓ Xodimlar motivatsiyasini oshirish va mehnat unumдорligini ta'minlash.⁵

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati va barqaror rivojlanishini ta’minalashning asosiy omillaridan biridir. Bu mexanizmlar rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda va korxonaning ekologik hamda ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mexanizmni takomillashtirish yo‘nalishlari

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy korxonalar uchun muvaffaqiyat kaliti bo‘lib, ularni raqobatbardosh, barqaror va samarali faoliyat yurituvchi subyektlarga aylantiradi. Hozirgi davrda texnologiyalar tez rivojlanmoqda va bu jarayon korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mexanizmlarni takomillashtirish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratilishi zarur:

⁵ Mintzberg H. “The Structuring of Organizations”. Pearson Education, 1979;

✓ Raqamli texnologiyalarni qo'llash: Moliyaviy boshqaruv va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va katta ma'lumotlar (big data) tahlili samarali vositalardir. Masalan, AQShning ko'plab kompaniyalari moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish orqali resurslarni tejashga erishmoqda.⁶

✓ Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish: Yangi mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish orqali korxona bozordagi ulushini oshirishi mumkin.

Korxonalar strategik rejalashtirish orqali o'z maqsadlarini aniq belgilashlari va resurslardan samarali foydalanishlari mumkin. Bu yo'nalish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

✓ Uzun muddatli maqsadlarni belgilash: Korxonaning rivojlanish strategiyasi aniq va moslashuvchan bo'lishi lozim. Masalan, Yaponiya kompaniyalari o'z strategik rejalarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida ishlab chiqmoqda.

✓ Xalqaro standartlarga moslashuv: ISO sertifikatlarini olish va sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.⁷

Korxonaning asosiy boyligi – bu inson resurslari. Shuning uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish muhim:

✓ Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish: Xalqaro tajribaga ko'ra, xodimlarni doimiy ravishda o'qitish va malakasini oshirish korxona samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Germaniyada amaliy o'qitish tizimi (dual education system) muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

✓ Motivatsiya tizimini rivojlantirish: Xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularga rag'batlantiruvchi vositalar taqdim etish samaradorlikni oshirishning muhim omilidir.⁸

Bugungi kunda ekologik masalalar korxonalar uchun katta ahamiyatga ega. Mexanizmlarni takomillashtirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

⁶ Kaplan R. S., Norton D. P. "The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action". Harvard Business Review Press, 1996;

⁷ Mintzberg H. "The Structuring of Organizations". Pearson Education, 1979;

⁸ Drucker P. "Management: Tasks, Responsibilities, Practices". HarperBusiness, 2006;

✓ Yashil texnologiyalarni joriy etish: Energiya tejamkor uskunalar va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.

✓ Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari: Mahsulot ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza xomashyodan foydalanish. Masalan, Skandinaviya davlatlarida kompaniyalar ekologik standartlarga rioya qilgan holda o‘z faoliyatini tashkil etmoqda.

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish korxona resurslarini samarali boshqarishda muhim o‘rin tutadi:

✓ Byudjetlashtirishni optimallashtirish: Xarajatlarni nazorat qilish va foyda ko‘rsatkichlarini oshirish uchun byudjet tizimini takomillashtirish.

✓ Investitsiyalarni boshqarish: Uzoq muddatli loyihamalar uchun barqaror investitsiyalarni jalb qilish. Xitoyning ko‘plab korxonalar bu yo‘nalishda muvaffaqiyatli tajribaga ega.⁹

Xulosa

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonaning samarali faoliyati uning boshqaruv tizimi qanchalik mukammal tashkil etilganiga bog‘liq. Zamonaviy raqamlı texnologiyalar korxonaning samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish uchun kuchli vositadir. Korxonalar uchun sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Strategik rejalashtirish orqali korxonalar o‘z maqsadlarini aniq belgilab, resurslarni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqaro standartlarga moslashish va bozor talablariga moslashuvchan bo‘lish raqobatbardoshlikni oshiradi. Xodimlarning malakasini oshirish, ularga qulay mehnat sharoitlarini yaratish va motivatsiya tizimini takomillashtirish korxonaning umumiyl samaradorligini oshiradi. Korxonalar ekologik masalalarga jiddiy yondashib, yashil texnologiyalarni joriy etishlari kerak. Bu nafaqat korxonaning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, balki uzoq muddatli barqaror

⁹ Hammer M., Champy J. “Reengineering the Corporation”. HarperBusiness, 2009;

rivojlanish uchun ham muhimdir. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korxonaning barqarorligini oshirish va bozor sharoitlarida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kotler P., Armstrong G. “Principles of Marketing”. Pearson Education, 2020;
2. Drucker P. “Management: Tasks, Responsibilities, Practices”. HarperBusiness, 2006;
3. Kaplan R. S., Norton D. P. “The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action”. Harvard Business Review Press, 1996;
4. Drucker P. “Management: Tasks, Responsibilities, Practices”. HarperBusiness, 2006;
5. Mintzberg H. “The Structuring of Organizations”. Pearson Education, 1979;
6. Hammer M., Champy J. “Reengineering the Corporation”. HarperBusiness, 2009;